

Qushlar sinfining umumiy tavsifi va sistematikasi

Nabiyeva Dilnoza Ahadjon qizi

Saidjahonova Muxarramoy Nuralixon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada, qushlarning tashqi tuzilishi, tana qoplami,skeleti, hazm qilish sistemasi, nafas olish sistemasi, qon aylanish sistemasi, ayirish, nerv sistemasi, sezgi organlari va sistematikasi haqida ma’limotlar yoritilgan.

Abstract: this article contains information about the external structure, body cover, skeleton, digestive system, respiratory system, circulatory system, nervous system, sense organs and systematics of birds.

Kalit so‘zlar: kontur qoplagich patlar, momiq patlar, to‘sh toji, o‘mrov ayrisi, bronxlar, qanotlar, miya yarimsharlari, targ‘il tana.

Keywords: contour cover, feathers, downy feathers, crown of the breast, vertebral column, bronchi, wings, cerebral hemispheres, body.

Qushlar – havoda uchishga moslashgan umurtqali hayvonlar. Ularning oldingi oyoqlari qanotga aylangan. Tanasi pat bilan qoplangan, tana skeleti pishiq va yengil suyaklardan iborat. Qushlarning tishlari bo‘lmaydi, jag‘lari muguz tumshuqqa aylangan. Naysimon suyaklar bo‘shlig‘i havo bilan to‘lgan. Qushlar nafas olishida havo xaltachalari ham ishtiroy etadi.

Tashqi tuzilishi. Ularning tanasi suyriga o‘xshash ixcham bo‘lib, uchayotganda havoga kam qarshilik ko‘rsatishga moslashgan. Ko‘pchilik qushlarning bo‘yni ingichka, juda egiluvchan bo‘ladi. Tanasi pat bilan qoplangan. Oyoqlar son, boldir, ilik va panja bo‘limlaridan iborat. Qushlarning oyoqlarida odatda 4 tadan barmoq bo‘lib, ulardan uchtasi oldinga, bittasi orqa tomong yo‘naltirilgan. Ayrim qushlarning barmoqlari uchta, hatto ikkita bo‘lishi ham mumkin(Afrika tuyaquushi).

Tana qoplami. Qushlar bezning yog‘simon suyuqligini patlariga surib turadi. Suyuqlik patlarga suv yuqtirmaydi. Patlar teri epidermisidan kelib chiqqan muguz modda-keratindan hosil bo‘lgan. Alovida pat; qalam uchi, pat o‘qi va pat

yelpig‘ichidan iborat. Pat o‘qi, ichi muguz devorli nay shaklida bo‘ladi. Pat yelpig‘ichi, pat o‘qining ikki yonidan chiqadigan 1-tartib o‘sinqchalardan iborat. Ilmoqchalar o‘zaro ilashib, yelpig‘ich yuzasini hosil qiladi. Patlar tuzilishi va funksiyasiga ko‘ra; kontur patlar, momiq patlar, parlar, ipsimon patlar, qillarga ajratiladi. Qanolarining ko‘tarish yuzasini hosil qiladigon yirik patlar-qoqish patlari deyiladi. Qushlar tanasini qoplab turadigon birmuncha kichikroq patlar-kontur qoplagich patlar deyiladi.

Skeleti. Qushlar skeleti umurtqa pog‘onasi, tana, qaot, orqa oyoqlar, yelka kamari, chanoq kamari bo‘limlaridan iborat. Havoda parvoz qilishga moslanishi tufayli ularning skeleti boshqa umurtqalilarga nisbatan juda yengil va pishiq bo‘ladi. Qushlarning bosh skeleti yupqa devorli miya qutisi va muguz bilan qoplangan tumshuqdan iborat. Tishlari bo‘lmaydi, bo‘yin umurtqalari 11 tadan 25 tagacha bo‘ladi. Kokrak umurtqalari o‘zaro harakatsiz qo‘shilgan. Qovurg‘alari o‘zaro tutashgan ikki qismdaniborat. To‘sh suyagi biroz oldinga bo‘rtib chiqqan, uning pastki uchi juda kengayib, *to ‘sh tojini* hosil qiladi. To‘sh tojiga qanolarni harakatga keltiruvchi katta ko‘krak muskullari va o‘mrov osti muskullari birikadi. Yelka kamari 3 juft suyakdan iborat. Qilichsimon egilgan kurak suyaklari umurtqa pog‘onasi bo‘ylab joylashgan. Chanoq kamari va orqa oyoq skeletining tuzilishi qushlar yurganida tana og‘irligining ana shu ikki oyoqqa tuhishi bilan bog‘liq. Chanoq kamari skeleti bel, dumg‘aza va dum umurtqalari bilan quymich va qov suyakalridan iborat. Orqa oyoq ancha yo‘g‘on son, birmuncha uzun va ingichka boldir, ilik va barmoq suyaklaridan iborat. Faqat qushlar uchun xos bo‘lgan ilik suyagi tovon tovon suyaklarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Bu asosan, qushlar tanasini yerdan ko‘tarib turadi.

Hazm qilish sistemasi. Og‘iz bo‘shlig‘idan boshlanadi. Jag‘lari muguz g‘ilof bilan qoplangan tumshuqqa aylangan. Qizilo‘ngachi kengayib, jig‘ildonni hosil qiladi. Ingichka ichagi birmuncha uzun, yo‘g‘on ichak esa qisqaroq, tog‘ri ichak bo‘lmaydi. Qizilo‘ngach juda cho‘ziluvchan, unda oziq zaxirasi saqlanadi. Qushlar ichagi kloaka bilan tugaydi. Ovqat qushlar ichagida juda tez hazm bo‘ladi.

Nafas olish sistemasi. Nafa olish sistemasi ancha murakkab tuzilgan bo‘lib, havo o‘tkazish yo‘llari, o‘pka va havo hالتalaridan iborat. Havo hالتalarining hajmi esa o‘pkadan bir necha marta katta bo‘ladi. Ularning o‘sintalari teri ostiga, muskullar oralig‘i va naysimon suyaklar bo‘shlig‘iga o‘tadi. Nafas olish sistemasi burun bo‘shlig‘idan boshlnadi. Kekirdak o‘pka yaqinida ikkita bronxga shoxlanadi.

Havo haltalarining umumiy sig‘imi o‘pkaga nisbatan 10 marta katta. Kaptar tinch holatda minutiga 26 marta, yurganida 77, uchganida 400 martagacha nafas oladi.

Qon aylanish sistemasi. Ikkita qon aylanish doirasidan iborat. Yuragi tort kamerali bo‘lib, chap va o‘ng qorincha, chap va o‘ng bo‘lmadan iborat. Arteriya va vena qoni to‘liq ajralgan. O‘ng qorinchadan o‘pka arteriyasi boshlanadi. Qushlar embrionida o‘ng va chap aorta yoylari paydo bo‘ladi. Moddalar almashinuviga juda jadal kechgani sababli qushlar ochlikka chidamsiz bo‘ladi. Och qolgan paytda o‘z energiya zaxirasini bir necha soat davomida sarf qilib, halok bo‘ladi. Yirtqich qushlar o‘ljasini quvayotganida energiya sarfi 16-20 marta ortadi. Tana haroratini doimiy saqlash termoregulatsiyaning asosiy yo‘li moddalar almashinuvining jadallahuviga hisobidan kerakli miqdorda qo‘sishma energiya ishlab chiqarishdan iborat. Termoregulatsiya uchun zarur bo‘lgan issiqlikning asosiy qismi muskullarda hosil bo‘ladi.

Nerv sistemasi. Qushlarning bosh miyasi umumiy holda sudralib yuruvchilarnikiga o‘xshash bo‘ladi. Ulardan ancha kattaligi, miyachasi, o‘rta miya ko‘rish bo‘laklari va oldingi miya yarimsharlarining kuchli rivojlanganligi bilan farq qiladi. Bosh miyasi hidlov bo‘rtiqlarining rivojlanishi hid bilish organining hayotidagi ahamiyatiga bog‘liq. Uchayotgan qush tanasi muvozanatini saqlanishi va harakatini boshqarilishi muvozanat saqlash organi, tanadagi va patlar orasidagi sezgi nervlaridan keladigon ko‘plab signallarni qabul qilish va tahlil qilishni talan etadi. Qushlarning oliy nerv faoliyati- *targ‘il tana* bilan bog‘liq.

Qushlarning turkumlari:

- 1.Pingvinlar katta turkumi.
- 2.Ko‘kraktojlilar katta turkumi.
- 3.Kurakoyoqlilar, laylaksimonlar, g‘ozsimonlar turkumi.
- 4.Yirtqichlar, tovuqsimonlar, chumchuqsimonlar turkumi va boshqalar.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa aniqki, ko‘pchilik qushlar inson hayoti uchun nihoyatda foydalidir. Shu sababli ularni har tomonlama mudofaa qilish kerak. Yuneskoning tashabbusi bilan 1948-yil 5-oktyabr tabiatni va tabiiy boyliklarni himoya qilish Xalqaro uyushmasi tuzildi. Hozir bu uyushmaga 40 ta mamlakat kiradi.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**

VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023


ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Mavlonov, Sh.Xurramov. Umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2006.
2. Dadayev. S. Umurtqasizlar zoologiyasidan o‘quv -uslubiy majmua.2021
3. Http//www.ziyonet.uz
4. WWW Ziyonet kutubxonasi.
5. http//www.pedagog.uz



**Research Science and
Innovation House**